



XORAZM ME'MORIY YODGORLIKLARIDAGI YOG'UCH KONSTRUKSIYALAR VA XATTOTLIK SAN'ATINI SAQLASHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.

Atanazarova Ma'mura Raximovna

"Ichan-Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Xorazm me'moriy yodgorliklaridagi yog'och konstruksiyalar va xattotlik san'atining tarixiy ahamiyati, ularning bugungi saqlanish holati hamda muhofaza qilish muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, tarixiy yog'och konstruksiyalar va epigrafik bezaklarni hujjatlashtirish, raqamlashtirish hamda ularni ilmiy asosda asrash bo'yicha takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, me'moriy meros, yog'och konstruksiyalar, yog'och o'ymakorligi, xattotlik san'ati, epigrafika, konservatsiya, restavratsiya, raqamlashtirish, madaniy meros, elektron axborot bazasi, usta-shogird an'anasi.

SCIENTIFIC AND PRACTICAL BASES OF PRESERVING WOODEN STRUCTURES AND THE ART OF CALLIGRAPHY IN KHOREZM ARCHITECTURAL MONUMENTS.

ABSTRACT

This article analyzes the historical significance of wooden structures and calligraphy in the architectural monuments of Khorezm, their current state of preservation, and protection issues. It also presents proposals for documenting, digitizing, and scientifically preserving historical wooden structures and epigraphic decorations.



Keywords: Khorezm, architectural heritage, wooden structures, wood carving, calligraphy, epigraphy, conservation, restoration, digitization, cultural heritage, electronic database, master-apprentice tradition.

Ma'lumki, Xorazm vohasi nafaqat O'zbekiston, balki jahon miqyosida ham boy tarixiy-me'moriy merosi bilan ajralib turadigan hududlardan biridir. Hududda saqlanib qolgan me'moriy obidalar yuksak me'moriy yechimlari, yog'och o'ymakorligi va xattotlik san'atining betakror namunalari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, XIX asr oxirlarida Xiva shahrida ikki yuzdan ortiq hattot, yog'och o'ymakori va duradgor ustalar faoliyat yuritgan. Ular tomonidan yaratilgan me'moriy inshootlardagi yog'och bezaklar hamda epigrafik yozuvlar bugungi kungacha o'zining badiiy va konstruktiv xususiyatlarini saqlab kelmoqda. Bu esa o'tmish ustalarining yog'ochga ishlov berish texnologiyasi va badiiy bezak yaratishdagi yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Yog'och o'ymakorligi amaliy bezak san'atining eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, tarixiy me'morchilikning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur san'at turi yog'och yuzasiga kesish, o'yish, teshish va bo'rtma shakllar hosil qilish orqali geometrik, girih va islmiy naqshlarni yaratishga asoslanadi. Naqshlar dastlab yog'och yuzasiga maxsus qolip yoki axta yordamida tushirilgan, keyinchalik turli o'lchamdagi iskanalar vositasida bosqichma-bosqich o'yib ishlangan. Ayniqsa, pargari va bag'dodi usullaridan foydalanish murakkab kompozitsiyalarni yaratishda keng qo'llanilgan.

Xorazm yog'och o'ymakorligi maktabining o'ziga xos jihatlaridan biri yog'och materialini puxta tayyorlash texnologiyasidir. Mahalliy ustalar qayrag'och, yong'oq, archa, tut, o'rik, chinor, tol va terak yog'ochlarining xususiyatlarini chuqur o'rganib, ularning mustahkam va zich tolali qismlarini tanlaganlar. Yog'ochlar uzoq muddat suvda ivitilib, tabiiy sharoitda soyada quritilgandan keyingina ularga ishlov



berilgan. Aynan ana shu texnologik jarayonlar yog‘och konstruksiyalarining bir necha asr davomida o‘z mustahkamligini saqlab qolishiga xizmat qilgan.

Xorazm tarixiy-me‘moriy obidalarining konstruktiv tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab inshootlarda yog‘och konstruksiyalar asosiy tayanch va bezak elementlari sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, ayrim obidalarda ularning ulushi 40–50 foizni tashkil etadi. Ayniqsa, XIX asrda Xiva xonligida bunyod etilgan saroylar, masjidlar va madrasalarda yog‘och ustunlar, eshiklar, darvozalar, panjaralar hamda muqarnas bezaklari yuksak badiiy saviyada ishlangan. Toshhovli saroyi, Juma masjidi va boshqa tarixiy obidalarda saqlanib qolgan yog‘och bezaklar Xorazm o‘ymakorlik maktabining yuksak taraqqiyot darajasini yaqqol namoyon etadi.

Xiva yog‘och o‘ymakorligi maktabi naqshlarning nafisligi, kompozitsiyaning serjiloligi, zamin qismining kamligi hamda yog‘ochning tabiiy rangini saqlab qolishga intilishi bilan Toshkent, Buxoro, Qo‘qon va Farg‘ona maktablaridan ajralib turadi. XIX asr boshlarida Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi davrida Xiva shahrida amalga oshirilgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari natijasida yuzlab yog‘och ustunlar, darvozalar va eshiklar mohir ustalar tomonidan nafis naqshlar bilan bezatilgan. Ayrim tarixiy obidalarda yog‘och o‘ymakor ustalarning ismlari islmiy naqshlar orasida bitilgani ularning ijodiy merosini aniqlashda muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Biroq bugungi kunda tarixiy obidalardagi yog‘och konstruksiyalarning muayyan qismi termitlar, biologik zararkunandalar, namlik, mog‘or, sho‘rlanish, chirish va boshqa tabiiy omillar ta’sirida yemirilish jarayoniga duch kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy yog‘och konstruksiyalarining qariyb 30 foizi turli darajadagi shikastlanish holatiga ega. Bu esa ularni ilmiy asoslangan konservatsiya va restavratsiya usullari asosida muhofaza qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.



Shu bilan birga, zamonaviy qurilish amaliyotida ham yog‘och konstruksiyalarning xizmat muddati bilan bog‘liq muammolar kuzatilmoqda. Yangi qurilayotgan binolarda qo‘llanilayotgan yog‘och ustunlar va eshiklarda qisqa muddat ichida yorilish, deformatsiylanish hamda biologik yemirilish holatlari uchramoqda. Bunga yog‘och materiallarini ekspluatatsiyaga tayyorlash texnologiyasiga to‘liq amal qilinmasligi hamda an‘anaviy ustachilik tajribasining yetarli darajada qo‘llanilmayotgani sabab bo‘lmoqda.

Tarixiy me‘morchilikning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan xattotlik san‘ati ham bugungi kunda yo‘qolib borayotgan noyob madaniy meros yo‘nalishlaridan biridir. Xorazm me‘moriy obidalaridagi arabiy bitiklar, Qur‘on oyatlari va tarixiy yozuvlarni asl uslubda yaratish hamda restavratsiya qilishga qodir malakali hattotlar soni juda kam. Natijada tarixiy obidalarni restavratsiya qilish va yangi bunyod etilayotgan me‘moriy inshootlarni tarixiy an‘analar asosida bezashda malakali mutaxassislariga ehtiyoj ortib bormoqda.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xorazm me‘morchiligidagi yog‘och konstruksiyalar, ularning ishlov berish texnologiyalari, xattotlik san‘ati hamda ushbu asarlarni yaratgan usta-hunarmandlarning ilmiy merosi bugungi kungacha kompleks tarzda yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois Xorazm me‘moriy yodgorliklaridagi yog‘och konstruksiyalar va xattotlik namunalarini tizimli ravishda hujjatlashtirish, ularning mualliflari, yaratilish davri, konstruktiv yechimlari, bezak kompozitsiyasi va saqlanish holati bo‘yicha yagona elektron axborot bazasini shakllantirish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar, rangli kataloglar, elektron ma‘lumotlar bazasi hamda usta-shogird maktablarini tashkil etish Xorazm yog‘och o‘ymakorligi va xattotlik san‘ati an‘analarini asrab-avaylash, tarixiy obidalarni ilmiy asosda restavratsiya qilish va ushbu noyob madaniy merosni kelajak avlodlarga to‘liq yetkazishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzaaxmedov M., Ergashev S. Yog‘och o‘ymakorligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
2. Bobojonov D., Abdullayev M. Xorazm amaliy san’at ustalari. – Xiva: Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2010. – 5 b.
3. Dala ma’lumotlari. Xiva “Ichon-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fond materiallari. – Xiva, 2024.
4. Boltayev A. Xorazm tarixi. 88-daftar. Qo‘lyozma. – 49-varaq.
5. Pugachenkova G. A., Rempel L. I. Pamyatniki arxitektury Khorezma. – Toshkent: Fan, 1958.